

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI**

**TURDIYEV BOBIR SOBIROVICH**

**INSONNING QULAY ATROF-MUHITGA BO‘LGAN HUQUQINI  
AMALGA OSHIRISH VA TA‘MINLASH:  
QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL**

12.00.13 – Inson huquqlari

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of the dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in law**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
юридическим наукам**

**Turdiyev Bobir Sobirovich**

Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlash:  
qiyosiy-huquqiy tahlil ..... 3

**Turdiev Bobir Sobirovich**

Realizing and ensuring the human right to a healthy environment: a comparative  
legal analysis ..... 25

**Турдиев Бобир Собирович**

Осуществление и обеспечение права человека на благоприятную  
окружающую среду: сравнительно-правовой анализ ..... 47

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

List of published works

Список опубликованных работ..... 52

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI**

**TURDIYEV BOBIR SOBIROVICH**

**INSONNING QULAY ATROF-MUHITGA BO‘LGAN HUQUQINI  
AMALGA OSHIRISH VA TA’MINLASH:  
QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL**

**12.00.13 – Inson huquqlari**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Yu1694 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://nhrc.uz/>) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (<https://ziyonet.uz/>) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tillabayev Mirzatillo Alisherovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Gulimov Amanlik Bazarbaevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Bafaev Shuxrat Gafurovich**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.39/30.11.2020.Yu/S.128.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 23-dekabr kuni soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 15-uy. Tel.: (99871) 239-40-23; e-mail: [info@nhrc.uz](mailto:info@nhrc.uz)).

Dissertatsiya bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (11-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100029, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 15-uy. Tel.: (99871) 239-40-23.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 9 dekabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 9 dekabrda 11 raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**M.T. Turg'unov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

  
**O.S. Ochilov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, dotsent

  
**G. Yuldasheva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda iqlim o'zgarishi va atrof-muhit ifloslanishi sharoitida insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlashning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy oqibatlariga, balki bevosita yoki bilvosita insonning asosiy huquq va erkinliklarini amalga oshirishda ham jiddiy xavf soladi. Ekologik sabablar bois har yili 13 mln. kishi halok bo'ladi,<sup>1</sup> global miqyosda 24% o'limlar (5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida esa 28%) o'zgartirish yoki oldini olish mumkin bo'lgan ekologik omillar sababli yuz beradi.<sup>2</sup> Bunda o'lim ko'rsatkichlari quyi daromadli davlatlarda sezilarli darajada yuqori hisoblanadi. Mazkur holat ayniqsa bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa zaif qatlamlariga, ularning salomatligi va farovon hayot kechirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jahonda ekologik ahvolning degradatsiyasi, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish choralarining yetarli darajada emasligi va davlatlar o'z zimmasiga olgan majburiyatlar bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish orqada qolayotganligini ta'kidlash lozim. Xususan, BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) ma'lumotlariga ko'ra, 161 davlatda (jami BMT a'zolarining 83 foizi) shaxsning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi e'tirof etilgan va 138 davlatda (71,5 foiz) mazkur huquqlarni amalga oshirishga oid protseduraviy huquqlar mustahkamlangan bo'lsa, faqat 76 davlatda (39,4 foiz) mazkur huquqlarni sud orqali himoya qilish imkoniyatidan foydalanilgan.<sup>3</sup>

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga egaligi kafolatlangan. Shuningdek, mamlakatimizda ushbu masala qaratilayotgan e'tibor va 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinganligi masalaning qanchalik dolzarb va muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek: "atrof-muhitni asrab-avaylashda mas'uliyat barchamizning zimmamizda. Bu kun tartibimizdagi eng muhim masaladir."<sup>4</sup> Shu sababli, insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlashning mexanizmlarini yanada takomillashtirish hamda ushbu mavzuni chuqur tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Ekologik samaradorlik indeksiga ko'ra 107-o'rin (42.6 ball), shu jumladan ekologik salomatlik ko'rsatkichi bo'yicha 111-o'rin (38.2 ball), havo sifati bo'yicha 133-o'rin (27.5 ball), ichimlik suvi va sanitariya holati bo'yicha 56-o'rinni

---

<sup>1</sup> Health, Environment and Climate Change: Report by the Director-General // World Health Organization. A71/10. – 2018. URL: <https://apps.who.int/iris/handle/10665/276332>.

<sup>2</sup> Preventing disease through healthy environments: a global assessment of the burden of disease from environmental risks // World Health Organization. – 2018. URL: <https://www.who.int/publications/i/item/9789241565196>.

<sup>3</sup> Environmental Rule of Law: Tracking Progress and Charting Future Directions // United Nations Environment Programme. – 2023; The Right to a Healthy Environment, A User's Guide // Special Rapporteur on the human right to a clean, healthy and sustainable environment. – 2024.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand xalqaro iqlim forumidagi nutqi, 2025. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8025>.

(72.8 ball) egallab kelmoqda.<sup>1</sup> Inson hayoti va yashashi uchun noqulay atrof-muhit o'z navbatida iqlim migratsiyasini kuchaytirishi, Markaziy Osiyo mintaqasida 2050-yilga borib 1.7-2.4 mln. iqlim migrantlari boshqa hududlarga ko'chib o'tishi, ichki migratsiyaga turtki beradigan asosiy omillar ichida iqlim o'zgarishining ta'siri 20-38 foizni tashkil etib, o'z vaqtida va samarali choralar ko'rilsa, ushbu choralar migratsiya oqimini 80 foizgacha pasaytirishi ta'kidlangan.<sup>2</sup> Bu esa atrof-muhit muhofazasi, insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini va barqaror rivojlanish choralari kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), "Iqlim o'zgarishi sharoitida inson huquqlarini global himoya qilish: barqaror kelajak uchun majburiyatlar va harakatlar to'g'risidagi Samarqand deklaratsiyasi" (2024), Shaharsozlik kodeksi (2021), "Ekologik nazorat to'g'risida"gi (2013), "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi (2015), "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi (2025) qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son Farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi, 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" Strategiyasining atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha belgilangan maqsadlar hamda 2025-yil 15-maydagi PQ-184-son qaror bilan tasdiqlangan 2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tadqiqot bilan bog'liq ayrim nazariy va amaliy muammolar mamlakatimiz olimlari A. Saidov, Sh. Fayziev, M. Tillabaev, A. To'laganov, I. Turg'unov, M. Turg'unov, S. Utemuratova, G. Yuldasheva, M. Usmonov, Sh. Bafayev, L. Isoqov va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, R. Ikramov, K. Babanazarov, A. Gulimov, I. Mamarayimov, B. Tadjixanov, O. Utegenov, G. Uzakova, M. Hamidova, X. Isanov, B. Kalonov, M. Mamayusupov, M. Najimov, O. Narzullaev, A. Nuridullaev, N. Rajabov, O'. Xamraev, J. Safarov asarlarida<sup>3</sup> insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlashning ayrim jihatlarini tadqiq qilingan.

<sup>1</sup> Environmental Performance Index // New Haven, CT: Yale Center for Environmental Law & Policy. – 2024. URL: <https://epi.yale.edu/country/2024/UZB>.

<sup>2</sup> Groundswell Part 2: Acting on Internal Climate Migration // World Bank, Washington. – 2021. URL: <http://hdl.handle.net/10986/36248>.

<sup>3</sup> Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Xususan, B. Kalonov “O‘zbekiston Respublikasida davlat ekologiya nazoratining huquqiy muammolari” (2005), R. Ikramov “Fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini takomillashtirish muammolari” (2006), K. Babanazarov “Tabiat obyektlari va inson salomatligini radiatsiya ta’siridan huquqiy muhofaza qilish” (2010), O‘. Xamraev “Ekologik qonunchilik talablarini amalga oshirishda jamoat birlashmalari ishtirokining huquqiy masalalari” (2011), M. Mamayusupov “Inson ekologik huquqlarini ta’minlashning huquqiy kafolatlari va mexanizmlari” (2012), O. Utegenov “Ekologiya sohasida jamoatchilik nazoratini huquqiy ta’minlashni takomillashtirish” (2020), N. Rajabov “Ekologik me’yorlash tizimini huquqiy tartibga solish masalalari” (2023), A. Gulimov “Orol dengizi mintaqasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro huquqiy hamkorlik” (2024) mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarida insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini ta’minlash yuzasidan ilmiy mushohada yuritilgan.

Xorijiy olimlar – S. Atapattu, D. Boyd, R. Bratspies, S. Çakan, S. Giorgetta, U. Habiba, J. Knox, N. Kobylarz, B. Peters, B. Preston, O. Ruppel, M. Thornton, A. Schwerdtfeger, D. Shelton, O. Spijkers, D. Weaver, T. Zaharchenko, MDH olimlaridan – A. Alixadjieva, M. Brinchuk, Y. Chulichkova, I. Krasnova, M. Permilovskiy, D. Shakirova, S. Shataeva va T. Sorokina tomonidan mazkur huquqning turli jihatlari keng o‘rganib chiqilgan.

Biroq tanlangan mavzu bo‘yicha nazariy-huquqiy muammolar insonning qulay atrof-muhit huquqini amalga oshirish va ta’minlashga oid milliy va xalqaro mexanizmlar, milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti, xalqaro standartlar hamda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini inobatga olgan holda inson huquqlari nuqtayi nazardan alohida monografik tadqiq etilmagan. Bu esa tadqiqot mavzusining dolzarb ahamiyat kasb etishini belgilab, uni ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan “Insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini amalga oshirish va ta’minlash: qiyosiy-huquqiy tahlil” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini amalga oshirish va ta’minlashning mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi tushunchasi va xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish;

insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini ta’minlashga qaratilgan xalqaro va mintaqaviy standartlar, mazkur huquqni amalga oshirish va ta’minlash mexanizmlarini tahlil etish;

insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini ta’minlash bo‘yicha xorijiy davlatlar qonunchiligi va tajribasini tahlil qilish hamda milliy amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rib chiqish;

iqlim o'zgarishi va atrof-muhit ifloslanishi sharoitida insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlashing dolzarb masalalarini tahlil qilish;

shaxsning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirishning konstitutsiyaviy huquqiy asoslarini tahlil qilish, mazkur yo'nalishda mavjud muammolar va tizimli kamchiliklarni aniqlash;

mamlakatimizda insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlashni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlardan iborat.

**Tadqiqotning predmetini** insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi milliy, mintaqaviy va xalqaro huquqiy hujjatlar, xorijiy davlatlar qonunchiligi va tajribasi, konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar, shuningdek huquqni qo'llash amaliyoti tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot davomida analiz, sintez, deduksiya, induksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil, empirik material va statistik ma'lumotlar tahlili, sotsiologik so'rov, kuzatish, tizimli yondashuv, mantiqiylik va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha axborotga ega bo'lish, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish va odil sudlovni ta'minlashda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, mazkur yo'nalishda Orxus konvensiyasiga qo'shilish zarurati asoslantirilgan;

atrof-muhitga ta'sirni baholashda ochiqlik va oshkoralik hamda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi bajarilishini monitoring qilish, davlat boshqaruvi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan maslahatlashuvlar o'tkazish asoslab berilgan;

insonning qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqlarini amalga oshirish, ekologik osoyishtalikni ta'minlash choralarini ko'rish, ekologik ta'lim va tarbiya tizimini tashkil etish asoslantirilgan;

shovqin, tebranish va inson salomatligi hamda atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa fizik omillar bilan ishlashda sanitariya qoidalarini va normalariga rioya etilishini nazorat qilish, inson hayoti va salomatligi uchun jiddiy xavf yuzaga kelganda tekshirishlar o'tkazish, xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatni cheklashga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish asoslab berilgan;

oziq-ovqat zanjirining barcha bosqichlarini amalga oshiruvchi joylarning sanitariya himoya mintaqasiga rioya etilishi, xavflarni nazorat va monitoring qilish, birlamchi ishlab chiqarishda pestitsidlarning qo'llanilishiga rioya qilinishi, sanitariya-gigiena talablari buzilganda ularni bartaraf etish choralarini ko'rish asoslantirilgan;

iqlim o'zgarishi bilan bog'liq inson huquqlari buzilishi jabrlanuvchilari uchun odil sudlovdan foydalanishni ta'minlaydigan mexanizmlarni yaratish va



mustahkamlash, shu jumladan ixtisoslashtirilgan mexanizmlar va qo'llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

milliy qonunchilikni Orxus konvensiyasi normalariga muvofiqlashtirish va qulay atrof-muhit huquqini ta'minlashga oid qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi ishlab chiqilgan;

atrof-muhitga ta'sirni baholashda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, jamoatchilik muhokamasi va eshituvini tashkil etishni yo'lga qo'yish, ularda davlat boshqaruvi organlari bilan maslahatlashuvlar o'tkazish, loyiha talablariga rioya etilishi bo'yicha monitoringni amalga oshirish, jarayonni raqamlashtirish maqsadida Jamoatchilik ekologik axborot portalini tashkil etish asoslantirilgan;

insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ifodalash uchun qo'llanilayotgan turli atamalar o'rniga yagona "qulay atrof-muhit huquqi" atamasini qo'llash asoslantirilgan;

"atrof-muhit", "qulay atrof-muhit" va "qulay atrof-muhit huquqi" tushunchalariga mualliflik ta'rifi berilgan;

insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlash, inson hayoti va salomatligi uchun jiddiy xavf yuzaga kelganda vakolatli davlat organlari tomonidan tezkor muhofaza choralari ko'rishga oid mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xalqaro, mintaqaviy va milliy qonunchilik normalari, huquqni qo'llash amaliyoti, BMT va boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hamda sudlar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiya va hujjatlarga tayanilgan, ilg'or xorijiy tajribalar, huquqni qo'llash amaliyoti, yetakchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari va metodologik yondashuvlari, statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali asoslantirilgan. Hujjatli tahlil dorasida 1000 ga yaqin davlat ekologik ekspertiza xulosalari tahlil qilingan. O'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma 337 nafar ishtirokchilar ishtirok etgan. Tadqiqot natijalari empirik materiallarga asoslanilgan va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Tadqiqot xulosa, taklif hamda tavsiyalari aprobatsiyadan o'tkazilib, natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati atrof-muhitni muhofaza qilishda inson huquqlari orqali yondashuvni o'zida aks ettiradi, ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalardan insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini himoya qilishning xorijiy va milliy mexanizmlari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishda, inson huquqlari, atrof-muhit muhofazasiga oid qonun ijodkorligi, milliy qonunchilikni takomillashtirish, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqotdan "Inson huquqlari", "Konstitutsiyaviy huquq", "Ekologiya huquqi", "Xalqaro ekologiya huquqi", "Ma'muriy huquq" kabi fanlarni ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda, O'zbekistonda "Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi" fanini shakllantirishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan tavsiya va xulosalarning amaliy ahamiyati insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlashga oid qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirish, mazkur yo'nalishda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, ushbu huquqning moddiy komponentlarini aniqlashtirish, tizimlashtirish va huquqiy jihatdan mustahkamlash, amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, strategiya, dastur va standartlarni ishlab chiqish, davlat va korporativ sektorning mas'uliyatini oshirish, atrof-muhitga oid axborotning ochiqligini oshirish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, odil sudlov va ma'muriy vositalarga murojaat qilish imkoniyatini yaxshilashga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha axborotga ega bo'lish, boshqaruvda (qarorlar qabul qilishda) ishtirok etish va odil sudlovni ta'minlashda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, mazkur yo'nalishda Orxus konvensiyasiga qo'shilish zarurati haqidagi taklif 2025-yil 11-martdagi "Atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati to'g'risidagi Konvensiyaga (Orxus, 1998-yil 25-iyun) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida"gi O'RQ-1045-sonli Qonunini ishlab chiqilishida inobatga olingan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 9-iyuldagi 3/dn-148-son ma'lumotnomasi*). Natijada, ushbu konvensiyaga qo'shilish insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini kafolatlash hamda ekologik demokratiyani mustahkamlashga ishonchli zamin yaratgan;

atrof-muhitga ta'sirni baholashda ochiqlik va oshkoralik hamda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi bajarilishini monitoring qilish, davlat boshqaruvi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan maslahatlashuvlar o'tkazish haqidagi taklif 2025-yil 24-fevraldagi "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi O'RQ-1036-sonli Qonunining 5, 24 va 36-moddalarini ishlab chiqilishida foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 9-iyuldagi 3/dn-148-son ma'lumotnomasi*). Ushbu taklifning amalga oshirilishi atrof-muhitga ta'sirni baholashda ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik va davlat hokimiyati organlari vakillarining ishtirokini kengaytirish, davlat ekologik ekspertizasi xulosasiga rioya etilishi ahvolini yaxshilashga imkoniyat yaratgan;

insonning qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqini amalga oshirish, ekologik osoyishtalikni ta'minlash choralari ko'rish, ekologik ta'lim va tarbiya tizimini tashkil etish to'g'risidagi takliflar 2024-yil 29-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-951-sonli Qonunining 1-moddasi uchinchi bandini ishlab chiqilishida foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari*

*institutining 2025-yil 9-iyuldagi 3/dn-148-son ma'lumotnomasi*). Ushbu taklifning amalga oshirilishi atrof-muhit muhofazasi, insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish ahvolini yaxshilash va ekologik xabardorlikni oshirishga xizmat qilgan;

shovqin, tebranish va inson salomatligi hamda atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa fizika omillar bilan ishlashda sanitariya qoidalari va normalariga rioya etilishini nazorat qilish, inson hayoti va salomatligi uchun jiddiy xavf yuzaga kelganda tekshirishlar o'tkazish, xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatni cheklashga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishga oid takliflar Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvardagi 48-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi to'g'risidagi nizomning 10-11-bandlarida o'z ifodasini topgan (*Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining 2025-yil 22-avgustdagi 02-21/8186-son ma'lumotnomasi*). Ushbu taklifning amalga oshirilishi sanitar osoyishtalikni ta'minlashga mas'ul davlat boshqaruvi organi faoliyati va uning vakolatlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

oziq-ovqat zanjirining barcha bosqichlarini amalga oshiruvchi joylarning sanitariya himoya mintaqasiga rioya etilishi, xavflarni nazorat va monitoring qilish, birlamchi ishlab chiqarishda pestitsidlarning qo'llanilishiga rioya qilinishi, sanitariya-gigiena talablari buzilganda, ularni bartaraf etish choralari ko'rishga oid takliflar Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 16-dekabrda hisobga olingan Oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligining umumiy sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlarining 8, 10-13, 73-75-bandlarini ishlab chiqilishida (*Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining 2025-yil 22-avgustdagi 02-21/8186-son ma'lumotnomasi*) foydalanilgan. Ushbu taklifning amalga oshirilishi insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqining moddiy komponenti hisoblangan oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashga hissa qo'shgan;

iqlim o'zgarishi bilan bog'liq inson huquqlari buzilishi jabrlanuvchilari uchun odil sudlovdan foydalanishni ta'minlaydigan mexanizmlarni yaratish va mustahkamlash, shu jumladan ixtisoslashtirilgan mexanizmlar va qo'llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish yuzasidan takliflar "Iqlim o'zgarishi sharoitida inson huquqlarini global himoya qilish: barqaror kelajak uchun majburiyatlar va harakatlar to'g'risidagi Samarqand deklaratsiyasi" (BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasi rasmiy hujjati (A/78/999) sifatida 2024-yil 4-sentabrda tasdiqlangan) 7-bandini (Asosiy tavsiyalar) ishlab chiqilishida (*Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining 2025-yil 26-sentabrdagi 01/1079-son ma'lumotnomasi*) foydalanilgan. Mazkur tavsiyalar iqlim o'zgarishi bilan bog'liq inson huquqlari buzilishida odil sudlovni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya tadqiqotining asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 17 ta, shu jumladan, dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 10 ta, xalqaro konferensiya to'plamlarida 4 ta, xorijda 3 ta (shundan 1 tasi Scopus bazasida indeksatsiya qilinadigan xorijiy jurnalda) maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, yettita paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning hajmi 155 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, natijalarining aprobatatsiyasi hamda e'lon qilinganligi, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmiga doir ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi konsepsiyasi va tizimi”** deb nomlanib, unda mavzuning ilmiy-nazariy jihatlarini, xususan, insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi tushunchasi, xususiyatlari, xalqaro va mintaqaviy standartlar, qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqni amalga oshirish mexanizmlari kompleks tadqiq etilgan.

Mazkur bobning *“Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi tushunchasi va xususiyatlari”*ga bag'ishlangan birinchi paragrafida insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi alohida mustaqil huquq sifatida batafsil o'rganilgan. Insonning asosiy huquqlarini ta'minlash va amalga oshirish barqaror atrof-muhitga bog'liq bo'lib, bu hayotiy faoliyat uchun qulay va xavfsiz muhit, toza havo, sifatli suv va oziq-ovqat kabi bir qator masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Qulay atrof-muhit huquqi ekologik huquqlarga nisbatan kengroq bo'lib, ekologiya, sanitariya, shaharsozlik va inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan boshqa normalarni ham qamrab oladi. Shu sababli u “huquqlar klasteri” sifatida e'tirof etiladi.

Insonning sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquqi ilk bor R.Karson tomonidan 1962-yilda taklif etilgan bo'lsada, qulay-atrof muhit huquqi atamasi va uning qamrov doirasi masalasida yagona yondashuv mavjud emas, mazkur huquqning zarurati, ahamiyati va foydaligi haqida munozaralar haligacha davom etmoqda. Xalqaro standartlar, shu jumladan Orxus konvensiyasi sog'lom atrof-muhit huquqini e'tirof etgan holda, mazkur huquqning aniq ta'rifini berishdan tiyilgan. Mazkur yondashuv turlicha qarashlar sababli yagona ta'rif berish qiyinligi bilan izohlanadi. Tadqiqotda mazkur huquqning xalqaro miqyosda keng e'tirof etilayotganligini inobatga olib, hozirgi eng asosiy munozaralar uning zarurati haqida emas, balki uni amalga oshirish mexanizmlariga qaratilishi kerakligi ta'kidlangan.

Ilmiy tadqiqot davomida dissertant R. Ikramov, A. Gulimov, M. Brinchuk, I. Krasnova, D. Boyd, S. Atapattu, M. Thornton, S. Giorgetta va boshqa olimlar

bilan munozaraga kirishib, “atrof-muhit”, “qulay atrof-muhit” va “qulay atrof-muhit huquqi” tushunchalariga mualliflik ta’rifini ishlab chiqqan.

Tadqiqotda insonning qulay atrof-muhitga bo’lgan huquqiga oid R. Bratspies, U. Habiba, B. Peters, D. Shelton, M. Thornton, M. Lostal kabi olimlarning yondashuvlari tahlil qilinib, ushbu ilmiy nazariyalar shartli ravishda uch guruhga ajratilib, ko’rib chiqilgan. Bular: inson farovonligini oldinga qo’yib, atrof-muhit muhofazasiga inson huquqlari va jamiyat farovonligi vositasi sifatida qaraydigan antropotsentrik nazariya, inson manfaatlaridan qat’iy nazar tabiat va tabiiy ekotizimlarning o’zi asrab-avvaylanishi kerakligini ilgari suradigan ekotsentrik nazariya hamda har ikkala nazariyaga nisbatan o’rtamiyona munosabatni aks ettirgan integrativ yondashuv inson huquqlari va ekologiya muhofazasi huquqiy rejimlari o’rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga kelishi mumkinligi, biroq umumiy maqsad yo’lida ular birlashishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Dissertatsiyada R. Ikramov, B. Preston, D. Boyd, S. Atapattu, N. Kobylarz, S. Keresit, N. Danilova va boshqa olimlarning qulay atrof-muhitga bo’lgan huquqning xususiyatlariga oid fikrlari tadqiq etilib, qulay atrof-muhit huquqini e’tirof etishning ahamiyati va afzalliklari asoslab berilgan. Ushbu huquq moddiy va protseduraviy huquqlarga ajratilgan. Mazkur huquqning moddiy elementlari har bir mintaq va hudud xususiyatidan kelib chiqib farqlanishi, ahamiyati turlicha bo’lishi, hatto har bir inson uchun ularning ustuvorligi har xil bo’lishi yoki farqlanishi, vaqt o’tgan sari takomillashib borish, yangi elementlar qo’shish hisobiga rivojlanish xususiyatiga egaligi qayd etilgan.

*“Insonning qulay atrof-muhitga bo’lgan huquqini ta’minlashning xalqaro va mintaqaviy standartlari”* deb nomlangan ikkinchi paragrafda atrof-muhit va inson huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro va mintaqaviy hujjatlar hamda ularga oid tizimlar chuqur tadqiq qilingan.

Tadqiqotda qulay atrof-muhit huquqiga oid hujjatlar tasnifi ishlab chiqilgan. Qulay atrof-muhit huquqining shakllanishi, rivojlanishi va xalqaro darajada e’tirof etilishi, inson huquqlariga oid eng asosiy bazaviy hujjatlarda mazkur huquqqa oid normalarning ifodalanishi ko’rib chiqilgan. Inson huquqlarini himoya qilish xalqaro tizimi doirasida BMTning Inson huquqlari bo’yicha Kengashi, shartnomaviy qo’mitalar va maxsus protseduralarga oid mexanizmlar yoritilgan. Toza, sog’lom va barqaror atrof-muhitga bo’lgan inson huquqlari bo’yicha BMT maxsus ma’ruzachisi mandatining ta’sis etilishi insonning qulay atrof-muhitga bo’lgan huquqini global miqyosda e’tirof etish, uning xususiyatlari va elementlarini tizimlashtirishda muhim rol o’ynaganligi ta’kidlangan.

Qulay atrof-muhitga bo’lgan huquq xalqaro hujjatlarga qaraganda mintaqaviy hujjatlarda aniq ifodasini topganligi, muvaffaqiyatli mustahkamlanganligi va amalda qo’llab kelinayotganligi qayd etilib, inson huquqlari bo’yicha Yevropa, Afrika, Lotin Amerikasi, MDH, Arab davlatlari, ASEAN tizimi ko’rib chiqilgan. Afrika va Lotin Amerikasi tizimi qulay atrof-muhit huquqini e’tirof etgan bo’lib, Inson va fuqaro huquqlari bo’yicha Afrika sudi vakolati faqat sanoqli davlatlar tomonidan tan olinganligi, Inson huquqlari bo’yicha Amerika sudiga faqat a’zo davlatlar va Komissiya murojaat qilishi hamda individual murojaatlar ko’rib chiqilmasligi kabi zaifliklar ta’kidlangan.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa tizimi eng rivojlangan mexanizmlarga ega bo'lsada, insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini hozirgacha e'tirof etmagan. Shunga qaramay, inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi vositasida mazkur huquqni e'tirof etishga oid muayyan sud pretsedenti shakllangan. Inson huquqlari bo'yicha Arab davlatlari va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) tizimida insonning barqaror atrof-muhitga bo'lgan huquqi e'tirof etilgan bo'lsada, murojaatlarni ko'rib chiqish, sud yoki boshqa nazorat mexanizmlari nazarda tutilmagan. Inson huquqlari bo'yicha MDH tizimida qulay atrof-muhit huquqi e'tirof etilmagan, inson huquqlari buzilishiga oid murojaatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari belgilanmagan. Shunga ko'ra, dissertant tomonidan qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqni e'tirof etish bilan birga, uni ta'minlashda odil sudlovga kirish imkoniyatini kafolatlash mintaqaviy inson huquqlari mexanizmlari samaradorligi va ta'sirchanligining eng muhim belgisi ekanligi ta'kidlangan.

Atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan masalalarda axborotga ega bo'lish, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish va odil sudlovni ta'minlash to'g'risidagi Orxus konvensiyasida shaxsning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi e'tirof etilgan bo'lib, hujjat real amaliy mexanizmlar bilan ta'minlangan, insonning ekologik huquqlarini protseduraviy vositalar yordamida amalga oshirishga qaratilgan hamda atrof-muhit muammolarini hal qilishda huquqlar asosidagi yondashuvni taklif etadi. Konvensiyaning asosiy xususiyati u hukumatlardan boshqa davlatlarga emas, balki fuqarolarga mas'uliyatli bo'lish va shaffoflikni talab etib, davlat organlarining o'z qarorlari uchun mas'uliyati va javobgarligini nazarda tutadi.

Birinchi bobning *"Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish mexanizmlari"* nomli uchinchi paragrafida qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqni samarali tatbiq etishga oid eng asosiy protseduraviy huquqlar: atrof-muhit masalalariga oid axborotga ega bo'lish, boshqaruvda (qarorlar qabul qilishda) ishtirok va odil sudlovni ta'minlash mexanizmlari kompleks tadqiq etilgan.

Tadqiqotda insonning ekologik huquqlarini amalga oshirishning eng muhim dastlabki shartlaridan biri bu atrof-muhit masalalariga oid axborotning ochiqligi va axborotga kirish imkoniyatini ta'minlash ekanligi qayd etilgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik boshqaruv va atrof-muhitga oid qarorlar samaradorligini oshirishda jamoatchilik ishtiroki juda muhim hisoblanadi. Tadqiqotda atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishga oid O. Utegenov, A. Hasan, O. Nadeem, O. Ruppel, D. Weaver, S. Suherlan, A. Glucker va boshqa olimlarning qarashlari tadqiq etilib, jamoatchilik ishtiroki qaror qabul qilish jarayonining shaffofligini oshirib, legitimlikni ta'minlaydi, atrof-muhitga salbiy ta'sirni oldini oladi va yumshatadi, ehtimoliy nizolar va qarama-qarshiliklarni oldindan aniqlashga yordam beradi, qarorlar sifati hamda davlat boshqaruvi organlarining mas'uliyati va hisobdorligini oshirish imkonini beradi degan xulosaga kelingan.

Qarorlar qabul qilishda ishtirokning norma ijodkorligi va siyosatini belgilash, atrof-muhitga ta'sirni baholash (AMTB), nodavlat notijorat tashkilotlar (NNTlar) orqali va raqamli ishtirok turlari tasniflangan. Axborot texnologiyalari rivojlanishi va raqamlashtirishning kengayishi demokratik jarayonlarda jamoatchilik ishtirokini sezilarli darajada oshirish imkonini berib, kibermakonda raqamli ishtirok tobora muhim va keng ta'sirga ega bo'lib borayotganligi ta'kidlangan. Tadqiqotda ekologik

shaffoflik va jamoatchilik ishtirokini rag‘batlantiruvchi kuchli huquqiy tizimlarga ega bo‘lgan mamlakatlar atrof-muhitni muhofaza qilishda yaxshiroq natijalarga erishishi qayd etilgan.

Shaxsning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini ta‘minlashning eng samarali institutsional mexanizmlaridan biri odil sudlov hisoblanadi. So‘nggi yillarda xalqaro, mintaqaviy va milliy sudlarda inson huquqlari va atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqish soni tobora oshib borayotganligi va bunda inson huquqlari instrumentlaridan samarali foydalanilayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Xususan, 60 dan ortiq mamlakatda atrof-muhit masalalari bo‘yicha sudlar tashkil etilganligi, Yaponiya va Janubiy Koreyada atrof-muhitga oid nizolarni muqobil hal etish uchun ekspert komissiya, Avstriya, Yangi Zelandiya, Gretsiya va Keniyada atrof-muhit masalalariga oid ombudsmanlar faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi e‘tirof etilgan.

Dissertatsiyada qulay atrof-muhit huquqiga oid bir qator tamoyillar ko‘rsatib o‘tilib, regressiyaga yo‘l qo‘ymaslik tamoyili alohida ta‘kidlab o‘tilgan. Ushbu tamoyil qulay atrof-muhitga oid standartlarni susaytirishni oldini olib, u faqat yaxshilanishi mumkinligi, amaldagi ekologik qonunchilik va muhofaza choralari minimal chegara bo‘lib, undan pasaytirish mumkin emasligini anglatadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini amalga oshirish va ta‘minlashning dolzarb masalalari”** deb nomlanib, unda insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini amalga oshirishga oid xorijiy davlatlar tajribasi, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit ifloslanishi sharoitida insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini ta‘minlash masalalari tahlil etilgan.

Ushbu bobning *“Insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini amalga oshirishga oid xorijiy davlatlar tajribasi”* deb nomlangan birinchi paragrafida 30 dan ortiq xorijiy mamlakatlarning, shu jumladan AQSh, Argentina, Avstraliya, Belgiya, Braziliya, Buyuk Britaniya, Daniya, Fransiya, Gruziya, Hindiston, Kanada, Kolumbiya, Portugaliya, Singapur, Vengriya, Xitoy, Yangi Zelandiya, Yaponiya va Yevropa Ittifoqining ilg‘or qonunchiligi va amaliyoti qiyosiy tahlil qilingan.

Qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqni xalqaro darajada e‘tirof etishdan ko‘ra uni milliy darajada tan olish tezroq amalga oshgan. Mazkur huquqning konstitutsiya darajasida e‘tirof etilishi Argentina, Braziliya, Kolumbiya, Portugaliya, Filippin va Janubiy Afrikada yangi avlod ekologik qonunchilikning qabul qilinishi va atrof-muhit muhofazasini kuchaytirishga xizmat qilgan. Bir qator xorijiy davlatlar qonunchiligida insonning qulay atrof-muhit huquqining moddiy komponentlari turli shaklda o‘z ifodasini topgan. Bular qatoriga havo sifati, asbestdan foydalanishni taqiqlash, bino-inshootlarga quyosh nuri tushishini ta‘minlash, suv va yashil zonalar, shovqin, qo‘lansa hidga oid me‘yorlar shular jumlasidandir.

Xorijiy davlatlarda mazkur huquqni tan olish bilan birga uni amalga oshirishga doir zarur mexanizmlar ham belgilangan. Xususan, qulay atrof-muhitga oid minimal ekologik standartlarni belgilash, strategiya va dasturlar qabul qilish, atrof-muhit holatini monitoring qilish va unga oid axborotni ochiq qilish, tezkor muhofaza choralari, odil sudlovni ta‘minlash, shu jumladan nizolarni tezkor va muqobil hal etish, jarayonga NNTlarni keng jalb etish kabi mexanizmlarga tayanilgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Hindiston, Qozog‘iston va boshqa davlatlarda

atrof-muhitga ta'sirni baholashda jamoatchilik ishtiroki mexanizmlaridan samarali foydalanish va jarayonni raqamlashtirish qulay atrof-muhitga oid qarorlar sifatini va davlat organlarining mas'uliyatini oshirish, atrof-muhit va inson huquqlari muhofazasini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Mazkur tadqiqot doirasida qulay atrof-muhit huquqini e'tirof etgan va uni qo'llab kelayotgan ilg'or Yevropa va Osiyo davlatlari Niderlandiya va Janubiy Koreya, shuningdek O'zbekiston bilan yaqin tarixiy, madaniy, huquqiy makonda bo'lgan qo'shni Qozog'iston qonunchiligi va amaliyoti alohida ko'rib chiqilib, tahlil qilingan. Mazkur davlatlar tajribasi insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlashga oid minimal chegaraviy me'yorlarni qonunchilik darajasida belgilash, ekologik boshqaruvda davlat, jamoatchilik va ekspertlar ishtiroki, atrof-muhit sifati yomonlashganda tezkor muhofaza choralarini ko'rish mexanizmlari fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalda ta'minlashning samarali vositalarini ko'rsatadi.

Mazkur bobning *“Iqlim o'zgarishi va atrof-muhit ifloslanishi sharoitida insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlash masalalari”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida qulay atrof-muhit huquqiga oid o'tkazilgan so'rovnoma natijalari va davlat ekologik ekspertizasi xulosalari tahlil qilingan.

Rivojlanayotgan davlatlarda atrof-muhitning degradatsiyasi bilan birga qonun ustuvorligining zaifligi, ekologik nazorat, boshqaruvda shaffoflik va jamoatchilik ishtirokining yetarli emasligi va sustligi, korrupsiya darajasi yuqoriligi, atrof-muhit sohasida qonun ustuvorligini ta'minlash va insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlash imkonini bermaydi.

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovnomaga ko'ra so'ralganlarning katta qismi atrof-muhit ifloslanishi va degradatsiyasi bilan bog'liq muammolardan xavotirda ekanligini bildirgan. Ishtirokchilarning katta qismi (88.2%) atrof-muhit ifloslanishi bilan bog'liq muammolarga duch kelgan bo'lsada, ularning aksariyati (83.1%) ushbu holat bo'yicha vakolatli organga yoki sudga murojaat qilmagan, atrof-muhitga oid axborot taqdim etish bo'yicha (65.9%) so'rov yubormagan, qarorlar qabul qilishda (71.5%) ishtirok etmagan. Ishtirokchilarning sezilarli qismi mazkur huquqni qanday amalga oshirishni bilmasligini bildirgan. Bu esa Orxus konvensiyasi talablariga muvofiq fuqarolarning atrof-muhitga oid axborotga ega bo'lish, qaror qabul qilishda ishtirok etish, ma'muriy vositalar va odil sudlovga murojaat etish mexanizmlaridan unumli foydalanish bo'yicha xabardorligini oshirishni talab etadi.

Atrof-muhitga ta'sirni baholashda jamoatchilik ishtiroki bo'yicha o'tkazilgan tahlillar jamoatchilik eshituvlarini tashkil etishning samarali va shaffof tizimi yo'lga qo'yilmaganligi, jarayonning raqamlashmaganligi, jamoatchilik eshituvini tashkil etishning amaldagi tartibotlariga rioya qilinmaganligi, eshituvlarning rasmiyatchilik uchun o'tkazilganligi, qaror qabul qilishda ushbu mexanizmdan unumli foydalanilmaganligi, past darajada xavfli va mahalliy darajada ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat turlari bo'yicha qaror qabul qilishda jamoatchilik bilan maslahatlashish nazarda tutilmaganligi, 2023-yilda I toifaga mansub berilgan xulosalar bo'yicha faqat 41.5% holatda jamoatchilik eshituvlari o'tkazilganligi, atrof-muhitga ta'sirni baholash materiallari 96.5% holatda ko'pchilik aholi gaplashadigan tilda ishlab



chiqilmaganligi aniqlanib, ushbu mexanizmning samarali tatbiq etilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar zarurligi ta'kidlangan.

Tahlillar qulay atrof-muhit huquqini bevosita yoki bilvosita amalga oshirish bilan bog'liq 200 ta atrofida sanitariya qoidalari va normalari, 300 dan ortiq shaharsozlik normalari va qoidalari, 30 ga yaqin qurilish reglamentlari mavjudligi, biroq ushbu normalardagi o'zaro nomuvofiqliklar va bir-birini takrorlashlar bilan bog'liq muammolar mavjudligi, bir qator qoida va normativlar Adliya vazirligida hisobga qo'yilmaganligi hamda rasmiy manbalarda matni va aktual holati keltirilmaganligi qayd etilib, mazkur norma va standartlarni qonunchilik darajasida mustahkamlash va integratsiya qilish maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida milliy qonunchilikda shaxsning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirishning huquqiy asoslari va mexanizmlari tahlil qilinib, ularni takomillashtirish istiqbollari yoritilgan.

Mazkur bobning *“Milliy qonunchilikda shaxsning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirishning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari”*ga bag'ishlangan birinchi paragrafida qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqqa oid milliy qonunchilik tahlil qilinib, uni yanada takomillashtirish, shuningdek xalqaro standartlar va xorijiy ilg'or tajribani tatbiq etishning zarurati ochib berilgan.

Milliy qonunchilikda insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va muhofaza qilishning bir qator mexanizm va vositalari belgilangan. Bunda axborotga ega bo'lish, tegishli yo'nalish bo'yicha dastur va loyihalarni ishlab chiqishda ishtirok etish, jamoatchilik nazorati va boshqa nazorat mexanizmlari, javobgarlik choralari, institutsional mexanizmlar hamda qulay atrof-muhit huquqini ta'minlashga oid qo'shimcha kafolat va muhofaza choralari tahlil qilingan.

Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlash bo'yicha turli davlat boshqaruvi organlari mas'uliyati belgilangan bo'lsada, masalaga kompleks va tizimli yondashish yo'qligi, turli idoralarning ushbu yo'nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish, atrof-muhit sifati holati belgilangan me'yorlardan oshganda tezkor muhofaza choralari qo'llash mexanizmlari aniq belgilanmaganligi qayd etilgan.

Qonunchilikda NNTlarning qulay atrof-muhit huquqini sud orqali samarali himoya qilish vakolati kafolatlanmaganligi, davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatiladigan ishlar ro'yxatida qulay atrof-muhit huquqi, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha bepul yuridik yordam ko'rsatish nazarda tutilmaganligi, javobgarlik mexanizmlariga oid normalarda bo'shliqlar va ta'sirchan huquqiy sanksiyalar qo'llash imkoniyati cheklanganligi ta'kidlangan.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda davlat ekologik ekspertizasi xulosasini berish tartibini buzish, jamoatchilik eshituvini o'tkazmasdan taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha ekologik ekspertiza xulosasi berish, AMTB jarayonida noto'g'ri ma'lumot berish, ekspertiza xulosasida berilgan talablarga rioya qilmaslik kabi holatlar uchun aybdor shaxslarning ma'muriy javobgarligi nazarda tutilmagan. Bundan tashqari, loyihalarni davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasisiz ro'yobga chiqarish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin shaxs

huquqbuzarlikni davom ettirsa, qat'iyroq jazo chorasini ko'rish, yuridik shaxslarga nisbatan mutanosib ta'sir choralari ko'rish, atrof-muhitni ifloslantirish holatlarini bartaraf etish va qayta tiklash majburiyatini yuklash nazarda tutilmaganligi ta'kidlab o'tilgan. Bu esa insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha yuridik shaxslar javobgarligini joriy etish, ular tomonidan yetkazilgan zarar bo'yicha mutanosib ta'sir choralari ko'rish va yetkazilgan zararni bartaraf etish bo'yicha majburiyat yuklash va amaliy nazorat (monitoring) mexanizmlarini joriy etish zaruratini ko'rsatadi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi "*Yangi O'zbekistonda insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlashni takomillashtirish istiqbollari*"ga bag'ishlangan bo'lib, unda qulay atrof-muhit huquqini amalga oshirish va ta'minlash bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan hamda milliy tizimni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Qulay atrof-muhit huquqining moddiy komponentlari asosan texnik standartlar, sanitariya va shaharsozlikka oid norma va qoidalar bilan belgilangan. Moddiy komponentlarning minimal standartlari qonun darajasida belgilanmaganligi, ayrim moddiy huquq komponentlari va ularga oid munosabatlar tartibga solinmagan bo'lsa, boshqalari bo'yicha moddiy komponentlarni ta'minlashga oid mexanizmlar aniq belgilanmaganligi o'z navbatida ekologiya va jamoatchilik salomatligi bilan bog'liq jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi qayd etib o'tilgan.

Xususan, mamlakatimizda shahar hududida yashil zonalar ulushi xalqaro standartlardan kamligi, juda katta ehtiyoj bo'lsada, deyarli birorta jamoatchilik uchun ochiq (bepul) suv havzalari mavjud emasligi, suv havzalari bo'yida plyajlar va cho'milish havzalarini tashkil etish, ulardagi suv sifatini foydalanuvchilar salomatligi uchun doimiy tekshirib borish va xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rish zarurati ta'kidlangan.

Tadqiqotda insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqiga taalluqli axborotning ochiqligi va oshkor etilishiga oid qat'iy talablarini joriy etish, ma'lumotlarning sifati, shakli va o'z vaqtida taqdim etilishini yaxshilash, Jamoatchilikni shaharsozlik va ekologik rejalar, siyosat yoki dasturlarni ishlab chiqishga keng jalb qilish, ekologiya yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan NNTlarni ko'proq qo'llab-quvvatlash va salohiyatini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirish zarurligi qayd etilgan.

## **XULOSA**

Ilmiy tadqiqot natijasida insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlash tahlil etilib, quyidagi xulosalar shakllantirildi:

### **I. Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlashga oid ilmiy-nazariy xulosalar:**

#### **1. Quyidagi tushunchalarga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi:**

*atrof-muhit* – tabiiy muhit va insonni o'rab turgan, uning yashashi, sog'lom rivojlanishi va kamol topishi uchun zarur bo'lgan qulay va xavfsiz shart-sharoitlar majmui bo'lib, u yashash sharoitlari, ijtimoiy va sanitariya-gigiyena muhiti,

shaharsozlik, transport, rekreatsiya, sport va sog'lomlashtirish infratuzilmasi, mehnat (ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish) shart-sharoitlari, tabiiy ekotizimlar va bio-xilmaxillikni qamrab oladi.

*qulay atrof-muhit* – insonning yashashi, dam olishi va faoliyat yuritishi (mehnat) uchun zarur bo'lgan, insonning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlaydigan, toza, xavfsiz, sog'lom, qulay va barqaror atrof-muhit sharoitlari hisoblanadi. Sog'lom deganda ifloslanish, zararli moddalar va inson yashashi uchun noqulaylik keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlardan xoli muhit tushuniladi. Bunday muhit inson faoliyati uchun qulay, xavfsiz va barqaror shart-sharoitlarni yaratish bilan birga tabiat va atrof-muhitni asrab-avvaylashni ham nazarda tutadi.

*qulay atrof-muhit huquqi* – hozirgi va kelajak avlodlarning qulay, xavfsiz va barqaror atrof-muhitda yashash va kamol topishga oid universal huquqidir. Ushbu huquq insonning o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator huquqlarining jamlanmasi bo'lib, yashash, sog'liq, toza havo, sifatli suv va oziq-ovqatga bo'lgan huquq kabi moddiy elementlar hamda atrof-muhit holati to'g'risida ishonchli axborotga ega bo'lish, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, ma'muriy va odil sudlovga erishish kabi protseduraviy huquqlarni o'z ichiga oladi.

2. Ilmiy tadqiqotlar va milliy qonunchilikda qo'llanilayotgan turli atamalarni (qulay tabiiy muhit, qulay atrof tabiiy muhit, qulay hayot faoliyati muhiti, qulay yashash muhiti, atrof muhitning qulay holati) maqbullashtirgan holda yagona "*qulay atrof-muhit huquqi*" atamasini qo'llash maqsadga muvofiq. Qulay atrof-muhit huquqi insonning ekologik huquqlariga nisbatan kenqroq tushuncha bo'lib, ushbu huquq nafaqat atrof tabiiy muhit, balki inson yashashi va faoliyati bilan bog'liq boshqa qulay shart-sharoitlar, shu jumladan sanitariya, shaharsozlik rejalashtirish, qulay infrastruktura va inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan boshqa sohaviy normalarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Mazkur huquq ekologiyani muhofaza qilish va barqaror atrof-muhitga ega bo'lish bilan birga inson, uning hayoti va sog'lig'ini ham muhofaza qilish, inson yashashi va faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan.

3. Qulay atrof-muhit huquqining moddiy va protseduraviy jihatlari tasniflandi. Bunda qulay atrof-muhit huquqining moddiy elementlari har bir mintaqa va hudud xususiyatidan kelib chiqib farqlanishi, ahamiyati turlicha bo'lishi, hatto har bir inson uchun ularning ustuvorligi har xil bo'lishi yoki farqlanishi, vaqt o'tgan sari takomillashib borish, yangi elementlar qo'shish hisobiga rivojlanish, huquq doirasi kengayib borish xususiyatiga egaligi asoslantirildi.

4. Qulay atrof-muhit huquqiga oid hujjatlar tasnifi ishlab chiqilib, ular shartli ravishda *ekologiya*, *inson huquqlari* va *aralash* turdagi boshqa sohaviy hujjatlarda o'z ifodasini topgan kategoriyalar kabi uch turga ajratildi. Shuningdek, xalqaro hujjatlar ta'siri yuzasidan *imperativ* va *tavsiyaviy*, qo'llanish geografiyasiga qarab *xalqaro* va *mintaqaviy* tusdagi hujjatlarga ajratildi.

**II. Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlash bilan bog'liq qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar:**

5. Milliy qonunchilikda atrof-muhitni muhofaza qilishning asosiy tamoyillari, atrof-muhit sifatining (minimal) standartlarini kiritish, qulay atrof-muhit huquqi va uni muhofaza qilishga oid milliy va hududiy dastur va rejalarini keng jamoatchilikni jalb etgan holda ishlab chiqish va har besh yil muddatga tasdiqlash, ular ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish va doimiy monitoring qilish, atrof-muhit holati to'g'risida ishonchli axborot bilan ta'minlash, atrof-muhit sifati standartlarini yaxshilash hamda tezkor muhofaza chora-tadbirlari, normativ-huquqiy hujjat va ular loyihalarining ekologiya va qulay atrof-muhitga oid ekspertizasi, atrof-muhit muhofazasida nodavlat notijorat tashkilotlari ishtiroki, yuridik shaxslar javobgarligi va remediatsiya choralari kiritish, shuningdek atrof-muhit muhofazasiga oid qonun normalarini tizimlashtirish va kodifikatsiya qilish, qulay atrof-muhit huquqiga oid sanitariya qoida, norma va standartlarni qonunchilik darajasida mustahkamlash maqsadga muvofiq.

6. "Ekologik nazorat to'g'risida"gi va "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunlarni amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, jamoatchilik nazorati natijalarini ko'rib chiqish bo'yicha nazorat subyektlari ishtirokida eshituv tashkil etishni belgilash, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonunda atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgan I va II toifadagi obyektlar operatorlari ishlab chiqarish ekologik nazoratini amalga oshirishi va ekologik xizmatni tashkil etishi majburiyligini belgilash taklif etiladi.

7. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 96-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, unda davlat ekologik ekspertizasi xulosasini berish tartibini buzish, ekspertiza xulosasi talablariga rioya qilmaslik uchun javobgarlik belgilash hamda jazo sanksiyalari qatoriga yetkazilgan zararni bartaraf etish va atrof-tabiiy muhitning avvalgi holatini qayta tiklash majburiyatini yuklashga oid choralarni nazarda tutish, kodeksga yangi 59<sup>6</sup> va 215<sup>9</sup>-moddalarni kiritish, ushbu normalarda atrof-muhit sifatiga oid tezkor muhofaza choralari qoidalari va atrof-muhit holati to'g'risidagi axborotning ochiqligiga oid qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni belgilash taklif etiladi.

8. Fuqarolik protsessual kodeksi 122-moddasiga strategik da'volarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralarni kiritish taklif qilinadi. Bunda atrof-muhitni muhofaza qilish va insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi yoki yuqoridagi masalalarda jamoatchilik manfaatlari uchun harakat qilayotgan shaxslarni tiyib turish, jamoatchilik ishtirokini oldini olish yoki cheklash uchun yetarli asoslantirilmagan, kiritilgan da'vo yoki uning summasining nomutanosibligi yaqqol ayon bo'lgan da'vo arizalarini ko'rmasdan qoldirish mexanizmlarini belgilash taklif qilinadi. Bunday hollarda da'voning asosligini isbotlash majburiyati, sud xarajatlari va javobgarning huquqiy himoya xarajatlarini qoplash da'vogari taraf zimmasida hisoblanadi.

9. "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonun 11-moddasiga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatiladigan ishlar qatoriga insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi va atrof-muhit muhofazasiga oid fuqarolik va ma'muriy sudlarga taalluqli ishlarni kiritish taklif qilinadi.

10. Shaharsozlik va qurilish faoliyatiga oid 300 dan ortiq norma, qoida va standartlarni Shaharsozlik kodeksiga integratsiya va kodifikatsiya qilish,

shuningdek kodeksning 32, 63 va 68-moddalariga qo'shimchalar kiritish, unga ko'ra atrof-muhit sifati standartlariga muvofiqligi ta'minlanmagan joylarda turar joy, ijtimoiy-amaliy va rekreatsiya zonalarini tashkil etishga yo'l qo'ymaslik, obyektlarni joylashtirishda va ular oralig'idagi masofa, shovqin, insolyatsiya, shamol yo'nalishi va tezligi, transport, energetika tizimi va ijtimoiy infratuzilmaga yuklama hamda favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish kabi omillarni inobatga olish, istirohat bog'lari va yashil xiyobonlar hamda ularning yer maydonlarini xususiylashtirish yoki ularning maqsadini o'zgartirish qat'iy taqiqlanishini belgilash taklif etiladi.

**11.** Atrof-muhitga ta'sirni baholashda (AMTB) jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, uning samaradorligini oshirish va jarayonni raqamlashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi 541-son qarorida quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish taklif qilinadi:

- jamoatchilik eshituvining maqsadi va ta'rifini kengaytirish, Jamoatchilik ekologik axborot portali orqali ekologiyaga oid normativ huquqiy hujjatlar, dastur va rejalar, shuningdek past darajada xavfli va mahalliy darajada ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat turlari bo'yicha ham jamoatchilik muhokamasi o'tkazishni yo'lga qo'yish, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan faoliyat ko'rsatayotgan barcha toifadagi obyektlar yoki faoliyat turlari fuqarolarning e'tiroz yoki shikoyatlariga sabab bo'lgan holatlarda jamoatchilik eshituvlarini o'tkazishning aniq va samarali mexanizmlarini belgilash;

- AMTBga oid loyiha hujjatlari bilan jamoatchilikning barvaqt tanishishi choralarini ko'rish hamda ko'pchilik aholi gaplashadigan tilda berilishiga ahamiyat qaratish, jamoatchilik eshituvi o'tkazilmagan AMTB loyihalarini davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazilishiga qat'iy yo'l qo'ymaslik, jamoatchilik fikri inobatga olinmagan loyihalarga tegishli hujjatlarni qaytarish tartibotlarini belgilash;

- Rejalashtirilayotgan loyiha yoki xo'jalik faoliyatiga oid qaror qabul qilish, loyiha uchun maqbul yer tanlash yoki ajratishdan avval jamoatchilik muhokamasi va eshituvini tashkil etish, AMTBda maslahatlashuv minimum muddati 15 kunni tashkil etishi, jamoatchilik eshituvlari har bir ma'muriy-hududiy birlikda (qishloq, mahalla, tuman) alohida-alohida o'tkazilishi, ekologik ekspertiza yoki ruxsatnoma olish uchun ariza jamoatchilik eshituvi o'tkazilgandan keyin 6 oydan kechiktirmasdan taqdim etilishini belgilash;

- jamoatchilik eshituvida mahalliy va davlat boshqaruvi organlarining tegishli soha (yo'nalish) bo'yicha munosabat bilan ishtirok etish mexanizmlarini joriy etish, AMTB bo'yicha berilgan xulosalarga rioya etilishi to'g'risida buyurtmachi tomonidan hisobot chop etish va loyiha auditini o'tkazish orqali tizimli ravishda post monitoring o'tkazilishini yo'lga qo'yish;

- sanitar muhofaza zonasi o'lchamlarini o'zgartirish (oshirish, kamaytirish)ga oid sanitariya-epidemiologiya xulosasi tizimli laboratoriya kuzatuvlari materiallari asosida obyektiv dalillar, aholi hayoti va sog'lig'iga xavfni baholash, ifloslantiruvchi moddalar fon konsentratsiyasini hisobga olgan holda mavjud eng yaxshi zamonaviy texnologik yechimlardan foydalanish kabi omillarga asoslanib berilishini nazarda tutish;

- AMTBda loyihaning insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi va sog'lik-salomatligiga ta'siri hamda tegishli xavf-xatarlarni (baxtsiz hodisa, falokat) baholash, AMTBda loyihaning muqobil variantlari taqdim etilishi va har bir muqobil variantning atrof-muhitga va insonga ta'siri qiyosiy taqqoslanishi, loyiha salbiy ta'sirini kamaytirish va yumshatishga doir choralarni muhokama qilishni belgilash maqsadga muvofiq.

**12.** Markaziy Osiyoda barqaror atrof-muhitni ta'minlash, transchegaraviy va yirik loyihalarni kelishgan holda amalga oshirish uchun O'zbekistonning Atrof-muhitga transchegaraviy ta'sirni baholash to'g'risidagi Espo konvensiyasi va uning Strategik ekologik baholashga oid Kiev Protokoliga (2003-yil) qo'shilishi juda muhim va zarur hisoblanadi.

### **III. Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlashning tashkiliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha takliflar:**

**13.** Atrof-muhitga oid axborotning ochiqligini ta'minlash, qaror qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki mexanizmlarini takomillashtirish va raqamlashtirish maqsadida Ekologik axborot portali va Jamoatchilik ekologik axborot portalini tashkil etish taklif etiladi. Ekologik axborot portali orqali ochiqlanadigan ekologik axborotlar soni va sifatini oshirish, atrof-muhit sifati, fon-monitoringiga oid barcha axborotlarni yagona portalda integratsiya qilish va ochiqlash, monitoring ma'lumotlarini sun'iy intellekt yordamida tahlil qilish va baholash imkoniyatlaridan foydalanish, Jamoatchilik ekologik axborot portali orqali atrof-muhitga oid normativ huquqiy hujjatlar, dastur va rejalar, shuningdek atrof-muhitga ta'sirni baholash jarayonida jamoatchilik muhokamasi va eshituvlarini tashkil etishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Jamoatchilik salomatligi ahvoliga oid axborotning ochiqligini kengaytirish, bunda kasalliklarning tarqalishi, ehtiyot choralari, oldini olish, tashxis va davolashga oid axborotni tezkor va proaktiv ochiqlash, aholining ekologik salomatligini o'lchash va baholash uchun Ekologik salomatlikni baholash indikatorlarini joriy etish va har uch yilda milliy ekologik salomatlikni baholashni amalga oshirish, har bir ma'muriy hududiy birlikning yashash uchun qanchalik qulay, sog'lom atrof-muhit va zarur infratuzilmaga egaligini baholash uchun sog'lom shahar (tuman) indeksini joriy etish hamda milliy shaharlar (tuman) reytingini yuritish taklif qilinadi.

**14.** Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish va ta'minlashga oid institutsional mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha quyidagilar taklif qilinadi:

- insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlash, mavjud muammolarni o'rganish va hal etish, muvofiqlashtirish, masalaga kompleks va tizimli yondashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish bo'yicha kengash, uning tarmoq (sohaviy) va hududiy kengashlarini tuzish;

- Oliy Majlisning Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlash va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha vakili (ombudsman) lavozimini ta'sis etish;

- qulay atrof-muhit huquqiga oid nizolarni muqobil ko'rib chiqish, tez, adolatli va samarali hal etish uchun milliy va hududiy ekspert komissiyalarini tashkil etish;
- atrof-muhit muhofazasiga oid milliy va hududiy dastur (reja)lar ijrosi va insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlash bo'yicha vakolatli davlat organi har yili parlamentga hisobot berishi, hokimlar esa tegishli hudud xalq deputatlari kengashiga hisobot taqdim etishini belgilash;
- Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi (Ekopolitsiya)ga atrof-muhitga oid huquqbuzarliklar bo'yicha tergov-surishtiruv va tezkor-qidiruv tadbirlarini olib borish vakolatini berish maqsadga muvofiq.

**15.** Atrof-muhit muhofazasi, qulay atrof-muhit huquqiga oid ta'lim va xabardorlik hamda salohiyatni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, bunda keng jamoatchilikka ekologik axborotga kirish, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish va atrof-muhit masalalarida odil sudlovga erishish yo'llari va tartibotlari haqida aniq va batafsil tushuntirish berish hamda bu haqidagi axborot va materiallarni ekologiya idoralari, mahalliy davlat hokimiyati, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar internetdagi axborot resurslari va devoriy axborot stendlariga joylashtirish, qulay atrof-muhit huquqini amalga oshirishga mas'ul davlat boshqaruvi va mahalliy hokimiyat organlari, sud, prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillarini maxsus dasturlar asosida o'qitish va malakasini oshirish, maxsus dasturlar va targ'ibot dasturlari orqali jamoatchilikning ekologik xabardorligi va mas'uliyatini oshirish, ekologiya sohasida faoliyat yuritadigan NNTlarni qo'llab-quvvatlash, ular tomonidan insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini himoya qilish va jamoat manfaatlari uchun da'vo ariza kiritish mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatini berish, ilmiy tadqiqotlarni ko'paytirish maqsadga muvofiq.

Fuqarolar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxslar, davlat boshqaruvi organlarini atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha sa'y-harakatlarda ixtiyoriy ravishda ishtirok etishga va ularni kundalik faoliyatda qo'llashga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida har yili ekologik mas'uliyatli fuqaro (oila), tadbirkorlik subyektlari, tashkilot, startap va g'oyalar, ilmiy yutuq va natijalar, foto, video rolik va boshqa targ'ibot materiallarini tayyorlaganlarni turli nominatsiyalar bo'yicha mukofotlash va Butunjahon atrof-muhitni muhofazasi qilish kunida topshirishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Tadbirkorlikka oid qonunchilikda, Savdo-sanoat palatasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va tegishli tadbirkorlar uyushmalari bilan hamkorlikda korporativ boshqaruv qoidalariga qulay atrof-muhit huquqini ta'minlashga oid biznesning mas'uliyati va majburiyatiga oid normalarni kiritish zarur.

**16.** Aholini shovqinning zararli ta'siridan himoya qilish maqsadida sanoat, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari, transport (avtomobil, temir yo'l va aviatsiya), qurilish va boshqa manbalardan chiqadigan shovqin darajasini nazorat qilish tizimini joriy etish, shovqin vaqtiga oid normalardagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish hamda shovqindan muhofaza choralari belgilash lozim.

**17.** Atmosferaga tashlanmalar chiqaruvchi emissiya obyektlarida havo ifloslanishining oldini olish uskunolari o'rnatilishi, atrof muhitga zarar yetkazish

darajasi yuqori va o'rta bo'lgan korxonalarda ilg'or ekologik tozalash texnologiya va filtrlari esa majburiy o'rnatilishi, ularga tutash hududlarda statsionar kuzatish punktlarini o'rnatish hamda fon monitoringini real vaqt rejimida Ekologik axborot portali orqali onlayn uzatishni yo'lga qo'yish, isitish tizimi korxonalari, issiqxonalar va boshqa xo'jalik faoliyatida ko'mir, mazut va boshqa yonuvchan buyumlar (shinalar)dan foydalanishni qat'iy taqiqlash, faqat ilg'or ekologik tozalash texnologiya va filtrlari mavjud bo'lgan taqdirda ruxsat berish taklif qilinadi.

**18.** Ofis va boshqa noturar bino-inshootlarni energiya tejamkorligi bo'yicha ixtiyoriy energiya markirovkalash va energiya auditini amalga oshirishni joriy etish, keyinchalik uning majburiyligini belgilash, avtomobildan chiqadigan tashlanmalarni kamaytirish maqsadida harakatlanishdan to'xtagan avtotransportda avtomatik motorni o'chirish tizimi (*ISG*) mavjud bo'lmagan avtomobillarni ishlab chiqarish yoki import qilishni bosqichma-bosqich cheklash, maishiy texnikaning shovqin darajasini markirovkalash, shovqin darajasi yuqori bo'lgan texnikani ishlab chiqarish yoki import qilishni cheklash lozim.

**19.** Favqulodda holatlar, tabiiy ofat, noqulay ob-havo hodisalari, jamoat xavfsizligiga tahdid soladigan holatlar haqida aholini tezkor ogohlantirish (*Wireless emergency alerts*) tizimini yo'lga qo'yish taklif qilinadi. Bunda tezkor ogohlantirish geolokatsiya (GPS) ma'lumotlari asosida ma'lum bir hududda bo'lib turgan barcha fuqarolarning mobil telefonlariga bir vaqtning o'zida xabar yuborish orqali amalga oshiriladi. Mazkur xabar telefon sozlamalarini unga moslashtirish, abonent to'lovini amalga oshirish yoki qaysidir mobil operator tarmog'iga ulanishni talab etmaydi.

**20.** Insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlash uchun yashil zonalar va suv havzalarini kengaytirish, har bir shahar va boshqa aholi punktlarida kishi boshiga to'g'ri keladigan yashil maydon hajmini kamida 9 m<sup>2</sup>ga yetkazish hamda uning muttasil oshib borilishiga qaratilgan strategiya va dasturlarni amalga oshirish, har bir tuman (shahar)da daryo, ko'l, kanallar va boshqa suv havzalari bo'yida jamoatchilik uchun ochiq kamida bitta suv havzalari va plyajlarni tashkil etish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan davlat va hududiy dasturlarni qabul qilish va amalga oshirish taklif qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-avgustdagi 671-son va 2025-yil 17-apreldagi 235-son qarorlarida bog'larning yashil va sokin hudud maydoni ulushini (75% gacha) oshirish, faol hudud ulushini esa (25% gacha) qisqartirish, istirohat bog'lari, yashil zonalar va qo'riqlanadigan tabiiy hududlarda shovqin chiqaradigan yoki tutunni ushlab qolish filtrlariga ega bo'lmagan umumiy ovqatlanish, savdo punktlari va boshqa elementlarni joylashtirishga yo'l qo'ymaslik, yashil zonalarini bosqichma-bosqich mexanik attraksionlardan xoli hududga aylantirish, amalda faoliyat ko'rsatayotgan istirohat bog'lari va boshqa tabiiy va landshaft-genetik xususiyatga ega bog'larda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishga faqat istisno hollarda istirohat bog'lari tinch zonalar tarkibiga kiruvchi elementlarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda jihozlash uchun ajratilishini nazarda tutish taklif etiladi.



**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES  
DSc.39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 AT THE NATIONAL CENTRE  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN FOR HUMAN RIGHTS**

---

**THE LAW ENFORCEMENT ACADEMY  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**TURDIEV BOBIR SOBIROVICH**

**REALIZING AND ENSURING THE HUMAN RIGHT TO  
A HEALTHY ENVIRONMENT: A COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS**

12.00.13 – Human rights

**Doctor of philosophy (PhD) in law  
DISSERTATION ABSTRACT**

**Tashkent – 2025**

The title of the Doctor of philosophy (PhD) dissertation was registered at the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science, and Innovation of the Republic of Uzbekistan with number B2024.4.PhD/Yu1694.

The dissertation is prepared at the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English and Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (<http://nhrc.uz/>) and Information educational portal «Ziyonet» (<https://ziyonet.uz/>).

**Scientific supervisor:**

**Tillabaev Mirzatillo Alisherovich**  
Doctor of Science in Law, Professor

**Official opponents:**

**Gulimov Amanlik Bazarbaevich**  
Doctor of Science in Law, Associate Professor

**Bafaev Shukhrat Gafurovich**  
Doctor of Philosophy in Law


**Leading organization:**

**Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan**

The defense of the dissertation will be held on December 23, 2025 at 11:30 at the session of the Scientific Council DSc.39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 at the National Centre of the Republic of Uzbekistan for Human Rights (Address: 100029, Islam Karimov street, 15. Tashkent, Uzbekistan. Phone: +998 71 239 13 58, fax: +998 71 239 43 39, e-mail: [info@nhrc.uz](mailto:info@nhrc.uz)).

The dissertation is available at the Information Resource Centre of the National Centre of the Republic of Uzbekistan for Human Rights (registered No. 11). Address: 100029, Islam Karimov street, 15, Tashkent, Uzbekistan.

The abstract of the dissertation was distributed on December 9, 2025.  
(Registry Protocol No. 11 of December 9, 2025).



*[Handwritten signature]*

**M.T. Turgunov**

Deputy Chairman of the Scientific Council  
awarding scientific degrees, Doctor of Science  
in Law, Professor

*[Handwritten signature]*

**U.S. Ochilov**

Scientific secretary of the Scientific Council  
awarding scientific degrees, Doctor of Science  
in Law, Associate Professor

**G. Yuldasheva**

Chairman of the Scientific Seminar at the  
Scientific Council awarding scientific degrees,  
Doctor of Science in Law, Professor

## INTRODUCTION

### (Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation)

**The actuality and necessity of the dissertation topic.** In the context of global climate change and escalating environmental pollution, the importance of ensuring the human right to a healthy environment is growing steadily. This issue not only carries serious economic and social repercussions, but also directly and indirectly threatens the realization of fundamental human rights and freedoms. Due to environmental factors, 13 million people die every year,<sup>1</sup> and globally, 24% of all deaths (and 28% among children under five) are attributable to environmental factors that could be modified or prevented.<sup>2</sup> Mortality rates are significantly higher in low-income countries. This situation has a particularly adverse impact on children, women, the elderly, persons with disabilities, and other vulnerable population groups, undermining their health and overall well-being.

Global environmental degradation, the insufficiency of measures to address climate change, and continued delays in meeting target indicators under states' international commitments continue to pose serious challenges. According to the United Nations Environment Programme (UNEP), the right of every individual to a healthy environment is formally recognized in 161 countries (approximately 83 percent of UN member states), and the procedural rights required to realize this right have been secured in 138 countries (around 71.5 percent). However, only in 76 countries (about 39.4 percent) individuals resorted to judicial remedies for its protection.<sup>3</sup>

Article 49 of the newly revised Constitution of the Republic of Uzbekistan guarantees everyone the right to a healthy environment and access to reliable information about its condition. Moreover, the declaration of 2025 as the “Year of Environmental Protection and Green Economy” in our country highlights the relevance and importance of this issue. As the President of the Republic of Uzbekistan, Sh.M. Mirziyoyev, has emphasized: “The responsibility for preserving and protecting the environment rests with all of us. This is the most important issue on our agenda.”<sup>4</sup> Therefore, it is important to further improve the mechanisms for realizing and ensuring the human right to a healthy environment, as well as to conduct in-depth research on this topic.

According to the Environmental Performance Index (EPI), Uzbekistan ranks 107th overall with a score of 42.6, including 111th in environmental health (38.2), 133rd in air quality (27.5), and 56th in sanitation and drinking water (72.8).<sup>5</sup> An

---

<sup>1</sup> Health, Environment and Climate Change: Report by the Director-General // World Health Organization. A71/10. – 2018 // URL: <https://apps.who.int/iris/handle/10665/276332>.

<sup>2</sup> Preventing disease through healthy environments: a global assessment of the burden of disease from environmental risks // World Health Organization. – 2018. URL: <https://www.who.int/publications/i/item/9789241565196>.

<sup>3</sup> Environmental Rule of Law: Tracking Progress and Charting Future Directions // United Nations Environment Programme. – 2023. The Right to a Healthy Environment, A User's Guide // Special Rapporteur on the human right to a clean, healthy and sustainable environment. – 2024.

<sup>4</sup> Address by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the Samarkand climate forum, 2025 // Official web-site of the President of Uzbekistan. URL: <https://president.uz/en/lists/view/8025>.

<sup>5</sup> Environmental Performance Index // New Haven, CT: Yale Center for Environmental Law & Policy. – 2024. URL: <https://epi.yale.edu/country/2024/UZB>.

unhealthy environment for human life and livelihoods, in turn, exacerbates climate-induced migration. It is projected that by 2050, 1.7–2.4 million climate migrants from the Central Asian region may move to other areas, with the impact of climate change accounting for 20–38 percent of the primary factors driving internal migration. If timely and effective measures are taken, these interventions could reduce migration flows by up to 80 percent.<sup>1</sup> This highlights the urgent need to strengthen environmental protection, safeguard the human right to a healthy environment, and enhance measures for sustainable development.

This dissertation contributes, to a certain extent, to the implementation of the goals and objectives set forth in the Constitution of the Republic of Uzbekistan (2023); Samarkand Declaration on the Global Protection of Human Rights in the Context of Climate Change: Commitments and Actions for a Sustainable Future (2024); the Urban Planning Code (2021); the Laws “*On Environmental Control*” (2013), “*On the Sanitary and Epidemiological Well-being of the Population*” (2015), and “*On Environmental Expertise, Environmental Impact Assessment, and Strategic Environmental Assessment*” (2025); as well as several presidential decrees of the Republic of Uzbekistan, including the *National Strategy of the Republic of Uzbekistan on Human Rights* (June 22, 2020), the *Concept for Environmental Protection of the Republic of Uzbekistan until 2030* (October 30, 2019); the “*Uzbekistan - 2030*” *Strategy* (September 11, 2023); and the *Concept for Raising the Environmental Awareness of the Population until 2030* (May 15, 2025) along with other relevant normative-legal acts.

